Otabek Yo‘ldoshevning 2023-yilda N.Uluqov rahbarligida himoya qilingan «O‘zbek tili gemeronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi» mavzusidagi PhD dissertatsiyasi savdo-tijorat obyektlari nomlarining tarixiy-lisoniy tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan, tadqiqotda gemeronimlar sodda va qo‘shma turlarga ajratilib, ularning shakllanish qonuniyatlari gidronimik va toponimik indikatorlar nazariyasi asosida tahlil qilingan [5;1–12-b.].

Dilorom Asatullayevna Islomovaning 2026-yilda N.Uluqov ilmiy rahbarligida himoyaga tavsiya etilgan «Toponimik indikatorlarning leksik-semantik va funksional tadqiqi» mavzusidagi PhD dissertatsiyasida toponimik indikatorlarning lisoniy xususiyatlari va vazifalari toponimiya materiallari asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda indikatorlarning boshqa toponimik birliklar bilan aloqasi, leksik-semantik tasnifi va funksional jihatlari tahlil qilingan; tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, leksik-semantik, derivatsion, etimologik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan [6;1–12-b.].

Mazkur ikki tadqiqot olim ilmiy maktabining gidronimikadan tashqari, gemeronimika va umumtoponimik indikatorlar tizimini o‘rganishga ham kengayayotganini ko‘rsatadi; tarixiy-etimologik tahlil, turkiy tillar qiyosi va indikatorlarning funksional-semantik tasnifiga asoslangan metodologiya onomastikaning boshqa mikrosohalarini tadqiq etishda ham qo‘llanmoqda [5;1–12-b.; 6;1–12-b.].

Xulosa va takliflar. Nosirjon Uluqovning pedagogik, ilmiy va ustozlik faoliyati o‘zaro bog‘liq uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. universitet miqyosida ta’lim va ilm-fan rivojiga xizmat qiluvchi pedagogik-tashkilotchilik faoliyatini olib bormoqda. E.Begmatov bilan hamkorlikda yaratilgan «O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati» orqali o‘zbek onomastik terminologiyasining ilmiy-nazariy rivojiga hissa qo‘shgan; gidronimika sohasidagi monografik tadqiqoti bilan o‘zbek tilshunosligining mazkur yo‘nalishiga salmoqli ilmiy hissa kiritgan [1;38–49-b.; 2;53–70-b.]. Olimning ilmiy maktabi shogirdlar tadqiqotlarida yangi bosqichda davom etmoqda; gidronimik va toponimik indikatorlar nazariyasi yangi onomastik mikrosohalarga tatbiq etilmoqda [5;1–12-b.; 6;1–12-b.]. N.Uluqovning ustozlik faoliyatining asosiy natijasi faqat alohida ilmiy asarlar emas, balki muayyan metodologik an’anaga ega ilmiy maktabning shakllanib borayotganidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. Namangan, 2006, 103-bet.

(2). Uluqov N. O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Filologiya fanlari doktori ... dissertatsiyasi, Toshkent, 2010, 312-bet.

(3). Uluqov N. O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Monografiya, 2008, 144-bet.

(4). Uluqov N. Turkiy tillardagi parallel gidronimik indikatorlar xususida. “Тюркология”, 2018, № 1, 82–88-betlar.

(5). Yo‘ldoshev O.T. O‘zbek tili gemeronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Namangan, 2023, 46-bet.

(6). Islomova D.A. Toponimik indikatorlarning leksik-semantik va funksional tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Namangan, 2026, 64-bet.

Baltayeva Xalima Toraboyevna (Urganch davlat Pedagogika instituti “San’atshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi: E-mail: baltayevaxalima583@gmail.com)

TASVIRIY SAN’AT TA’LIMI MAZMUNIDA MILLIY KOMPONENTNING DIDAKTIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *Tadqiqot muammosi tasviriy san’at ta’limi mazmunida milliy komponentning didaktik ahamiyati yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi va uning funksional tarkibi tizimli tahlil qilinmaganligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu masala bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlash sifatini oshirish nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot nazariy tahlil, kontent-tahlil va pedagogik kuzatish metodologiyasiga asoslangan. Tadqiqot natijasida milliy komponentning bilim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va estetik funksiyalari aniqlandi hamda ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asoslab berildi. Ishning nazariy ahamiyati milliy komponentning didaktik mohiyatini yangi, tizimli nuqtai nazardan yoritishda, amaliy ahamiyati esa bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan konkret metodik yo‘nalishlarni belgilashda namoyon bo‘ladi. Muallifning ilmiy hissasi milliy komponentning didaktik funksiyalari tizimini birinchi marta yaxlit, o‘zaro bog‘liq model sifatida ishlab chiqishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *didaktik ahamiyat, milliy komponent, ta’lim mazmuni, bilim beruvchi funksiya, rivojlantiruvchi funksiya, estetik tarbiya, tasviriy san’at ta’limi.*

ДИДАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО КОМПОНЕНТА В СОДЕРЖАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *Проблема исследования связана с недостаточной научной обоснованностью дидактического значения национального компонента в содержании художественного образования и отсутствием системного анализа его функциональной структуры, что актуально с точки зрения повышения качества профессионально-педагогической подготовки будущих учителей изобразительного искусства. Исследование опирается на теоретический анализ, контент-анализ и педагогическое наблюдение. В результате исследования выявлены познавательная, развивающая, воспитательная и эстетическая функции национального компонента, обоснована их взаимосвязь. Теоретическая значимость работы заключается в раскрытии дидактической сущности национального компонента с новой, системной точки зрения, практическая значимость – в определении конкретных методических направлений для подготовки будущих педагогов. Научный вклад автора состоит в разработке целостной, взаимосвязанной модели дидактических функций национального компонента.*

Ключевые слова: *дидактическое значение, национальный компонент, содержание образования, познавательная функция, развивающая функция, эстетическое воспитание, художественное образование.*

THE DIDACTIC SIGNIFICANCE OF THE NATIONAL COMPONENT IN THE CONTENT OF FINE ARTS EDUCATION

Annotation. *The research problem concerns the insufficient scientific substantiation of the didactic significance of the national component in the content of fine arts education and the lack of systematic analysis of its functional structure, which is relevant for improving the quality of professional-pedagogical training of future fine arts teachers. The research is based on theoretical analysis, content analysis, and pedagogical observation. As a result, the cognitive, developmental, educative, and aesthetic functions of the national component were identified, and their interrelation was substantiated. The theoretical significance of the work lies in revealing the didactic essence of the national component from a new, systemic perspective; the practical significance lies in defining concrete methodological directions applicable in the training of future teachers. The author's scientific contribution consists in developing, for the first time, a holistic, interrelated model of the didactic functions of the national component.*

Key words: *didactic significance, national component, educational content, cognitive function, developmental function, aesthetic upbringing, fine arts education.*

1.Kirish. Mavzuning dolzarbligi. Ta'lim mazmunining har bir tarkibiy qismi ma'lum bir didaktik vazifani bajaradi va bu vazifa uning ta'lim jarayonidagi o'rnini belgilaydi. Tasviriy san'at ta'limida milliy komponent ham alohida didaktik yuk tashiydi. U talabaga faqat badiiy ko'nikma bermay, balki uning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va kasbiy shaxsiyatini shakllantiradi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish davomiy dolzarblikka ega bo'lib, bu ta'lim mazmuni unsurlarining didaktik vazifasini ilmiy asoslashni taqozo etadi.

Ilmiy muammo. Amaliyotda milliy komponent, ko'pincha, faqat tarbiyaviy-mafkuraviy vosita sifatida talqin etiladi, uning bilim beruvchi, rivojlantiruvchi va estetik funksiyalari esa ilmiy jihatdan yetarlicha tizimlashtirilmagan, bu esa uning to'liq didaktik salohiyatidan foydalanishga to'sqinlik qiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Maqsad – milliy komponentning didaktik ahamiyatini uning funksional tarkibi orqali ochib berish. Vazifalar: didaktik funksiyalarni aniqlash; har birining mazmun-mohiyatini yoritish; funksiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash, natijalarning amaliy ahamiyatini ko'rsatish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Obyekt – oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at ta'limi jarayoni, predmet – ushbu jarayonda milliy komponentning didaktik ahamiyati va funksional tarkibi.

Ilmiy yangilik va nazariy-amaliy ahamiyat. Ilmiy yangilik – milliy komponentning to'rt funksiyasi (bilim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, estetik) birinchi marta yaxlit tizim sifatida tahlil qilinganligida. Nazariy ahamiyat – didaktika nazariyasini shu tizim bilan boyitishda, amaliy ahamiyat esa o'qituvchi tayyorlash jarayoni uchun konkret metodik yo'nalishlar belgilashda namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Didaktika nazariyasida har qanday ta'lim mazmuni komponenti bilim beruvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi funksiyalarni birgalikda bajarishi kerakligi ta'kidlanadi [1;45–47-b.]. G.N.Volkov xalq pedagogikasini millatning ko'p asrlik tarbiyaviy tajribasi majmuyi sifatida ta'riflab, uni ta'lim tizimining milliy negizi deb hisoblaydi [2;12–15-b.], bu esa milliy komponentning nafaqat tarbiyaviy, balki chuqur bilim beruvchi salohiyatini ko'rsatadi.

S.F.Abdirasilov tasviriy san'atni o'qitish metodikasida ilmiylik, izchillik va tarbiyaviylik tamoyillarining o'zaro bog'liqligini asoslaydi [3], biroq milliy komponentning aynan funksional tarkibini alohida tahlil qilmaydi. Xalqaro tajribada "madaniyatga mos pedagogika" (culturally responsive pedagogy) yondashuvi ta'lim mazmuni va metodlarini o'quvchining madaniy-milliy konteksti bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi [4], bu esa milliy komponentning xalqaro miqyosda ham tan olingan didaktik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud adabiyotda milliy komponentning umumiy tarbiyaviy-didaktik ahamiyati yetarlicha yoritilgan, biroq uning konkret funksional tarkibi – bilim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va estetik funksiyalarning har biri va ular orasidagi bog'liqlik – tizimli tadqiq etilmagan. Aynan shu ilmiy bo'shliq (research gap) mazkur tadqiqotning predmeti va yangiligini belgilaydi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mavjud tadqiqotlarda, ko'pincha, milliy komponent va umumdidaktik tamoyillar (ilmiylik, ko'rgazmalilik, izchillik) o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi, biroq bu tamoyillar milliy komponentning nima uchun samarali ekanligini emas, balki uni qanday tashkil etish kerakligini tushuntiradi. Mazkur tadqiqot esa aynan birinchi savolga – milliy komponent nima uchun ta'lim mazmunining zaruriy qismi ekanligiga – uning ichki funksional mexanizmlari orqali javob beradi, bu esa tadqiqotning nazariy-metodologik farqlovchi xususiyatini tashkil etadi.

3.Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot dizayni nazariy-analitik tadqiqot sifatida tanlandi. Qo'llanilgan metodlar:

- nazariy tahlil–didaktika va pedagogik psixologiya manbalarini tahlil qilish uchun;
- qiyosiy tahlil–funksiyalarni bir-biri bilan solishtirish uchun;
- kontent-tahlil–o'quv dasturi va darsliklardagi milliy komponentga oid materialni tahlil qilish uchun;
- pedagogik kuzatish – talabalar faolligini kuzatish uchun.

Tadqiqot materiali – didaktika va tasviriy san'at metodikasiga oid manbalar, davlat ta'lim standarti va pedagogik kuzatishlar natijalari. Tahlil uch bosqichda, avval, funksiyalar nazariy jihatdan aniqlandi, so'ng, har biri tasviriy san'at ta'limi kontekstida konkretlashtirildi, yakunda ular orasidagi bog'liqlik tahlil qilinib, xulosalar shakllantirildi.

4. Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tahlil natijasida milliy komponentning to'rtta o'zaro bog'liq didaktik funksiyasi aniqlandi: bilim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va estetik.

Bilim beruvchi funksiya talabaga xalq badiiy merosi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, kompozitsion-texnik xususiyatlari haqida tizimli bilim beradi. Naqqoshlik naqsh turlari va ularning ramziy ma'nosini o'rganish talabaga madaniyatshunoslik, tarix va estetikaga oid bilim ham beradi, bu esa fanlararo bog'liqlik tamoyilining amalga oshishiga xizmat qiladi [3;34-b.].

Rivojlantiruvchi funksiya talabaning obrazli va assotsiativ tafakkurini shakllantiradi. Sharq miniatyurasi va xalq amaliy san'ati real shakllarni emas, balki ramziy-shartli obrazlarni tasvirlashga asoslangan bo'lib, bunday badiiy til mustaqil badiiy fikrlash va ramziy ma'no yaratish qobiliyatini talab qiladi.

Tarbiyalovchi funksiya milliy g'urur va madaniy merosga daxldorlik hissini shakllantiradi. Buni mavhum "vatanparvarlik tarbiyasi" emas, aniq didaktik mexanizm sifatida tushunish lozim: talaba naqsh yoki miniatyura ustida ishlar ekan, u faoliyat orqali qadriyatni o'zlashtiradi, bu esa og'zaki uzatilgan ma'lumotga qaraganda chuqurroq ildiz otadi [2;20-b.].

Estetik funksiya xalq amaliy san'atiga xos rang uyg'unligi, kompozitsion muvozanat va dekorativ ritm orqali badiiy didni shakllantiradi, chunki har qanday yuksak milliy san'at namunasi umuminsoniy estetik qadriyatlarni ham mujassam etadi.

1-jadval

Milliy komponentning didaktik funksiyalari

Funksiya	Tavsif va misol
1) bilim beruvchi	tarixiy-nazariy bilim, fanlararo bog'liqlik: naqsh turlari va ramziy ma'nosini o'rganish.
2) rivojlantiruvchi	obrazli, assotsiativ tafakkur: Sharq miniatyurasidagi shartli obrazlarni tahlil qilish.
3) tarbiyalovchi	milliy g'urur, qadriyatga daxldorlik: milliy naqsh ustida amaliy-ijodiy faoliyat.
4) estetik	badiiy did, rang-kompozitsion sezgirlik: rang uyg'unligi va dekorativ ritmni o'rganish.

Tahlil, shuningdek, to'rtta funksiyaning izolatsiyalangan emas, o'zaro uzviy bog'liqlikda amalga oshishini ko'rsatdi: bilim beruvchi funksiya rivojlantiruvchiga asos yaratadi, u esa tarbiyalovchi va estetik funksiyalarning chuqurroq amalga oshishiga xizmat qiladi – bu barcha to'rtta funksiyani kompleks ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu o‘zaro bog‘liqlikni amaliy misolda ko‘rish mumkin: talaba o‘zbek naqqoshligi naqshlarini o‘rganish jarayonida, avval, ularning tarixiy-ramziy ma’nosi haqida bilim oladi (bilim beruvchi funksiya), so‘ngra shu bilim asosida naqshni obrazli tahlil qilib, o‘z kompozitsion yechimini izlaydi (rivojlantiruvchi funksiya), amaliy ijod jarayonida naqshni qo‘li bilan yaratib, unga nisbatan shaxsiy-qadriyatli munosabat shakllantiradi (tarbiyalovchi funksiya) va yakunda rang hamda kompozitsion muvozanat qonuniyatlarini ongli qo‘llagan holda asarini yakunlaydi (estetik funksiya). Bu misol to‘rt funksiyaning bitta pedagogik topshiriq doirasida ketma-ket va uzviy tarzda amalga oshishini yaqqol ko‘rsatadi.

5. Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijasida milliy komponentning didaktik ahamiyati to‘rtta o‘zaro bog‘liq funksiya – bilim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va estetik – orqali namoyon bo‘lishi aniqlandi va asoslandi, bu esa uni ta’lim mazmunining tasodifiy emas, ilmiy asoslangan zaruriy qismi sifatida qarash lozimligini tasdiqlaydi.

Amaliy ahamiyati: bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda quyidagilar tavsiya etiladi:

1) fanlararo bog‘liqlik orqali bilim beruvchi funksiyani ro‘yobga chiqarish;

2) obrazli-ijodiy tahlil topshiriqlari orqali rivojlantiruvchi funksiyani ta’minlash;

3) amaliy-ijodiy faoliyat orqali tarbiyalovchi funksiyani mustahkamlash;

4) rang-kompozitsiya tahlili orqali estetik funksiyani rivojlantirish.

Kelgusi tadqiqotlar uchun taklif: ushbu to‘rt funksiyaga asoslangan dars ishlanmalari tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali empirik tekshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений, Москва, издательский центр “Академия”, 2002, 576 с.

(2).Волков Г.Н. Этнопедагогика, Учебник, Москва, издательский центр «Академия», 2000, с. 168.

(3). Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2012.

(4). Ladson-Billings G. Culturally Relevant Pedagogy. Asking a Different Question. New York, Teachers College Press, 2021, 224 p.

(5). O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining “Tasviriy san’at” fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti va namunaviy o‘quv dasturi. Toshkent, 2021.

Achilova Sevara Djasirkulovna (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti “Maxsus pedagogika” kafedra dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); E-mail: achilovasevara85@gmail.com)

OG‘IR NUTQ NUQSONLARI BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHGA BO‘LAJAK LOGOPEDLARNI TAYYORLASH BOSQICHLARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashga bo‘lajak logopedlarni tayyorlash bosqichlari va ularni amalga oshirishning pedagogik strategiyalari haqida yoritilgan. Bo‘lajak logopedlar og‘ir nutq nuqsonlarni bir-biridan farqlash, ularga to‘g‘ri tashxis qo‘yishda nazariy va maliy bilimlarning ahamiyati, ularni bartaraf etishda qo‘llaniladigan metod va metodikalarni qo‘llash ishlari. Shuningdek, bo‘lajak logopedlar og‘ir nutq nuqsonlar bilan ishlashda qo‘llaniladigan tayyorlash bosqichlari va pedagogik strategiyalardan foydalanish ishlari ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *defektologiya, logopediya, duduqlanish nutq nuqsoni, rinolaliya nutq nuqsoni, dizartriya nutq nuqsoni, alaliya nutq nuqsoni, korreksiya, adaptatsiya, logopedik zond, shpatel, ritm, tembr, nutqiy nafas, motorika.*

Ачилова Севара Джасиркуловна (Чирчикский государственный педагогический университет, кафедра специальной педагогики; доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент; E-mail: achilovasevara85@gmail.com)

ЭТАПЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ЛОГОПЕДОВ К РАБОТЕ С ДЕТЬМИ, ИМЕЮЩИМИ ТЯЖЕЛЫЕ НАРУШЕНИЯ РЕЧИ, И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ ИХ РЕАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *В статье описываются этапы подготовки будущих логопедов к работе с детьми, имеющими тяжелые нарушения речи, а также педагогические стратегии реализации этой подготовки. Рассматриваются вопросы дифференциации различных видов тяжелых нарушений речи, роль теоретических и практических знаний в их правильной диагностике, а также применение методов и приемов, направленных на их устранение. Кроме того, представлены этапы обуче-*